XALQ DEPUTATLARI YUQORI CHIRCHIQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 3 - fevral VI-39-7-10-145-K/22 Yuqorichirchiq tuman hokimligi

2022 yil uchun Yuqori Chirchiq tumani mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi 2021 yil 30 dekabrdagi O’RQ-742-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022 yil 8-yanvardagi VI-44-4-10-0-K/22-sonli qarorini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O’zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O’zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi 2021 yil 30 dekabrdagi O’RQ-742-sonli Qonuniga (keyingi o’rinlarda Qonun deb ataladi), Viloyat Kengashining 2022 yil 8-yanvardagi VI-44-4-10-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, Yuqori Chirchiq tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun daromadlari
69 241,2 mln.so’m va xarajatlari 118 891,4 mln.so’m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun viloyatning viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun tuman byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va harajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo’l qo’yilmasligi Qonunda belgilab qo’yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun tuman byudjeti zahira jamg’armasi hajmlari

1 121,6 mln.so’m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetlarining 2022 yil uchun zahira jamg’armasi tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy harajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar bo’yicha tumanimizda, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig’i stavkasiga

0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo’llagan holda yer solig’i stavkalari 6-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo’yicha mol-mulk soliqlari uchun qo’llaniladigan mutloq miqdorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. 2022 yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag’larining yo’l qo’yiladigan eng kam miqdori 880,1 mln.so’mni hamda tuman byudjeti shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag’larining yo’l qo’yiladigan eng kam miqdori 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. O’zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet harajatlarini hududiy byudjet mablag’lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo’yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar byudjetiga to’liq hajmda o’tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to’g’risidagi deklaratsiyaga asosan to’laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;

qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to’lovchilar tomonidan to’lanadigan qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo’yicha ijara to’lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) Toshkent viloyatining viloyat mahalliy byudjeti hamda Yuqori Chirchiq tumani mahalliy byudjeti o’rtasida quyidagi tartibda taqsimlanadi:

elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to’lovchilar tomonidan to’lanadigan qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va littsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig’imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig’imlar (bojxona organlari

tomonidan undiriladigan yig’imlardan, g’ildirakli transport vositalari, o’ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig’imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o’zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to’lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o’tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy Davlat hokimiyati organlarining ulushi bo’yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo’lgan mulk va ijara huquqini auktsion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag’lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo’yicha olingan daromadlar;

tuman va shahar darajasida bo’lmagan boshqa daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o’rtasida quyidagi soliq turlari bo’yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg’isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig’i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to’g’risidagi deklaratsiyaga asosan to’lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’idan tashqari) 42 foizi;

foyda solig’idan tushumlarning (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro’yxatga muvofiq yirik soliq to’lovchilar, O’zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali

faoliyat yurituvchi O’zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to’lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to’lanadigan foyda solig’idan tashqari) 40 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o’rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o’tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo’lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o’tkaziladi.

12. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Tastanbekov), Moliya bo’limi mudiri (R.Saidov), Davlat soliq inspektsiyasi (D.Yo’ldashov) tuman hokimligi va mas’ul korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko’rsatkichlarni o’z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo’shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (D.Yo’ldashov) O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to’liq va to’g’ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o’z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig’i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo’yicha doimiy tahlillar o’tkazgan holda, soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to’lovlari bo’yicha soliq qarzdorligiga yo’l qo’ymaslik choralarini ko’rish;

aylanmadan soliq turi bo’yicha soliq to’lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o’rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o’tkazish;

bunda, mazkur yo’nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ’ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig’ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman Davlat soliq inspektsiyasi (D.Yo’ldashov), tuman Kadastr agentligi (J.Xakkulov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig’ini hisoblashda ko’chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to’lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Tuman Davlat soliq inspektsiyasi (D.Yo’ldashov) tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo’yicha xatlovlar o’tkazish;

xatlov natijalari bo’yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karьerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o’rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo’yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi (E.Xudayberganov) tuman davlat soliq inspektsiyasi (D.Yo'ldashov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va oilani qo'llab quvatlash bo'limi (O.Salimov), tumandagi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsin.

18. Tuman investitsiya va tashqi savdo bo'limi (A.Sayfutdinov) bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlarini aniqlash bo'yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra tumanda mavjud bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan Davlat mulki ob'ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan Davlat mulki ob'ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va

video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan Davlat mulki ob'ektlarini «e-ijro auktsion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman investitsiya va tashqi savdo bo'limi (A.Sayfutdinov), tuman Davlat soliq inspektsiyasi (D.Yo'ldashov), tuman Moliya bo'limi mudiri (R.Saidov) Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq Davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdoridagi ajratmalar va Davlat ulushi bo'yicha dividiendlarni 2022 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o'tkazilishini ta'minlasin.

20. Tuman investitsiya va tashqi savdo bo'limi (A.Sayfutdinov) tashqi reklama ob'ektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama

ob’ektlari bo’yicha shartnomalar tuzish choralarini ko’rsin hamda ushbu shartnomalar bo’yicha yig’imlarni byudjetga to’lanishi ustidan doimiy nazorat o’rnatsin.

21. Tuman suv ho’jaligi bo’limi (J.Turapov) va tuman Davlat soliq inspektsiyasi (D.Yo’ldashov) sug’orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo’yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo’yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to’liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to’liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo’jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo’yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo’yicha doimiy tahlillar o’tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22. Tuman ichki ishlar bo’limi (v.v.b. A.Mullajonov), tuman yo’l harakati xavfsizligi bo’limi (N.Mamadaliev), Davlat xizmatlari agentligi (B.Abduqodirov) hisoblangan boj, jarima va yig’imlarni o’z vaqtida o’rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko’rib borsin.

23. Xalq ta’limi, Maktabgacha ta’lim va Sog’liqni saqlash bo’limlari:

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin.

24. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalaridan foydalanish to’g’risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to’liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag’larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o’rnatishga va natijalari bo’yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet harajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag’larning maqsadli sarflanishi

ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25. Tuman byudjeti jami harajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo’shimcha mablag’larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo’naltirsin.

Bunda, tuman Xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo’shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro’yhati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to’g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko’ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Tastanbekov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Z.Serikbaev):

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko’rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko’rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo’yicha mahalliy Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsinlar.

27. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to’lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Mazkur qaror “Yuqori Chirchiq hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (G.Utbasarova) va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

30. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi **U.Atemov**

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
1-илова

**Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq
tuman Kengashining
VI-39-4-10-145-K/22-sonli qaroriga
1-ilova**

2022 yil uchun Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani bo'yicha Mahalliy byudjet daromadlarining reja ko'rsatkichlari

Daromad turlari		**Summa ming so'm**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	4 850 285
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	5 949 261
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	6 008 908
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	919 396
5	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig'i	2 135 097
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	855 050
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 122 102
6	Yuridik shaxslar yer solig'i	1 614 725
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	7 453 949
7	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	4 972 578
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 128 309
9	Davlat boji	0
10	Jarimalar	0
11	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0
9	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	468 808
10	Yig'imlar	0
11	Xususiylashtirish	0
12	Boshqalar	0
JAMI		**46 478 468**
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromad	**22 762 706**
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	8 615 247
14	Mobil aloqa xizmati	4 908 254
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig'i	9 239 205
JAMI DAROMAD		**69 241 174**

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
2-илова

Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq
tuman Kengashining
VI-39-4-10-145-K/22-sonli qaroriga
2-ilova

2022 yil uchun Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani bo'yicha Mahalliy byudjet harajatlarining reja ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar		**Miqdori** (ming so'm)
	Xarajatlar - jami	**118 891 393**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**87 011 075**
1.1	Maorif	10 127 787
	- maktabgacha ta'lim	2 953 802
	- umumiy ta'lim	7 173 985
1.2	Sog'liqni saqlash	49 995 730
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	66 000
1.4	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	4 616 738
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 358 431
	- sport	3 258 307
1.5	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensasiyalar	22 115 630
1.6	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	89 190
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**12 351 838**
2.1	Fermerlar xo'jaliklari buxgalteriya markazlari	342 754
2.2	Obodonlashtirish	8 387 093
2.3	Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	1 688 071
2.4	Veterinariya qo'mitasi	952 171
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	981 749
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**8 593 872**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	8 593 872
4	**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash**	**4 204 906**
5	**Zahira jamg'armasi**	**1 121 617**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi**	**5 608 085**

Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **49 650 219**

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
3-илова

Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq
tuman Kengashining
VI-39-4-10-145-K/22-sonli qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Yuqori Chirchiq tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulki solig’i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg’isi va gaz realizasiya qilishdan olinadigan aksiz solig’i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq
1	**Yuqori Chirchiq**	10	10	10	10	10	50	100	100

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
4-илова

Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq tuman Kengashining VI-39-4-10-145-K/22-sonli qaroriga 4-ilova

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanining mahalliy byudjeti 2022 yilgi daromadlar va harajatlar prognoz ko’rsatgichlari

ming so’mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Harajat
1	Yuqori Chirchiq tumani	69 241 174,0	118 891 393,0
	JAMI	**69 241 174,0**	**118 891 393,0**

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
5-илова

Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq
tuman Kengashining
VI-39-4-10-145-K/22-sonli qaroriga
5-ilova

Tuman byudjetlariga 2022 yilda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so’mda

Shahar va tumanlar	**Summa**
Yuqori Chirchiq tumani	49 650 219,0
JAMI	**49 650 219,0**

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
6-илова

Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq
tuman Kengashining
VI-39-4-10-145-K/22-sonli qaroriga
6-ilova

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha tuman kesimida yer solig'i stavkalari uchun 2022 yilda belgilangan koeffitsiyentlar

ming so'mda

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo'yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2022 yil uchun (ming so'mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2022 yil uchun
1	Birlik MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
2	Baliqchi MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
3	Yoshlik MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
4	Mirobod MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
5	Fayzobod MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
6	Nurafshon MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
7	Do'stlik MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
8	Uchchinor MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
9	Yashnoobod MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
10	Bahor MFY	1,15	33 961,8	1,15	310,5
11	Gulobod MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
12	Istiqlol MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
13	Istiqbol MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
14	Taraqqiyot MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
15	Qora-so'v MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
16	Ittifoh MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
17	Ma'rifat MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
18	Chirchiq MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
19	Navro'z MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
20	O'zbekiston MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
21	A.Yassaviy MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
22	Jalol-tepa MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
23	Yangi xayot MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0

24	Qizil soy MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
25	Nurli yul MFY	1,00	`29 532,0	1,00	270,0
26	Oq ovul MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
27	Farovon MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
28	Jumabozor MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
29	Navoiy MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
30	Usmonobod MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
31	Obodon MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
32	Guliston MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
33	Darxon MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
34	Sakson ota MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
35	Markaziy MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
36	Tashto’g’izoq MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
37	Chumchuqjar MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
38	Sultonravot MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
39	Kavardon MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
40	Yangiobod MFY	1,00	29 532,0	1,00	270,0
41	Nurli zamin MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
42	Qanli MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
43	Qo’rsoy MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
44	Buloqboshi MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0
45	Miyam-Qangli MFY	0,80	23 625,6	0,8	216,0

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
7-илова

Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq tuman Kengashining VI-39-4-10-145-K/22-sonli qaroriga 7-ilova

Yuridik shaxslar bo’yicha mol mulk soliqlari uchun qo’llaniladigan mutloq miqdorlari			
T/r	**Tuman nomi**	**Koeffitsiyent miqdori**	**Belgilangan qiymat so’mda**
1	Yuqori Chirchiq tuman	1	1 000 000,00

Халқ депутатлари Юқоричирчиқ
туман Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-39-7-10-145-K/22-сон қарорига
8-илова

**Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq
tuman Kengashining
VI-39-4-10-145-K/22-sonli
qaroriga 8-ilova**

Tuman byudjetida
yo’l qo’yiladigan eng kam mablag’lar miqdori

ming so’mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Yuqori Chirchiq tumani	880 144,0
	JAMI	880 144,0